

ABOUT WILLIAM SHAKESPEARE'S ROMEO AND JULIET

Dilnozaxon Murotova Otabek qizi

Fergana State University Faculty of Philology Uzbek

language and literature Direction 2nd Year Student

+998901640908 murotova.dilnozaxon@gmail.com

ANNOTATION

This article is based on Shakespeare's Romeo and Juliet conflicts, similarities.

Keywords: drama, tragedy, image, situation, conflict.

“Adabiy qahramon – adabiy asardagi inson obrazidir. Badiiy asardagi qatnashuvchi shaxslar va personajlarga nisbatan adabiy qahramon deb qarash mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, dramada ishtirok etuvchi shaxslar shu asarning umumiy g'oyasini ochishga xizmat qiladi. Dramatik turda muallif epik turdagi kabi voqea-hodisalarga aralasha olmaydi, ta'rif berolmaydi. Aynan shu mas'uliyat ham drama qahramonlarining zimmasiga yuklatiladi.

Shu sababdan drama muallifi o'z asarini har bir tasviriga e'tibor bilan mahorat ila yoritmoq'i darkor. Bu esa dramaning bosh spetsifik xususiyati, ya'ni uning ikkinchi hayotini sahnada davom etishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan, Shekspir ijodi ham o'ziga xos marom va ohangga egaligi bilan ajralib turadi. Dramaturgiya otasi ko'plab dramalarida o'tkir tasviri, takrorlanmas o'xshatishlardan unumli foydalangan. Shuningdek, asar konfliktlarga boy bo'lib garchi fojia bilan tugasa-da, muhabbat haqidagi eng go'zal qo'shiq sifatida e'tirof eta olamiz.:

Sevgim meni boshlab keldi yor dargohiga,
Sevgi menga kengash berdi men esa ko'zlar
Men dengizchi sayyoh emas, ammo ishonki,
Agar olis dengizlardan nari bo'lsang ham
Shunday qimmat gavhar uchun suzib borardim.

Sevgi madhiyasi bo'lmish ushbu asardagi obrazlar muhabbati sof va haqiqiy. U mangu barhayotdir.

Yaxshi anglaymizki, harakat, albatta, konflikt ustiga quriladi, ya'ni drama ziddiyatlar o'zaro to'qnashuvlar asosida ta'sir kuchini saqlab qola oladi. Shu jumladan, V.E. Xalizev o'z asarida: “...Demak, dramatic syujetning ziddiyatlari asosan uyg'un va mukammal bo'lgan dunyo tartibining buzilishini anglatadi. Yokidunyo tartibining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning nomukammalligi va uyg'unligidan dalolat beradi”, -deb yozadi.

Romeo va Julietta asari ham boshidanoq biz Kapulet va Montague oilalari o'rtasidagi azaliy kurashga duch kelamiz. Lekin bu asarning mavzusi urush emas. Faqat ikki urushayotgan oila farzandlari bir –birini sevib qolishi natijasida ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Ba'zan o'yin inversiya bilan boshlanadi, ya'ni harakat boshlanishidan avval konflikt qanday tugashi oldindan ko'rsatiladi. Inversiyaning birlamchi vazifasi tomoshabinni boshidanoq o'ziga jalb qilish va asar oxirini oldindan ko'ra bilishga qiziqtirishdir.

Shekspirning ushbu asari muqaddimasida ham inversiya lahzasi bor. ularning sevgisining fojeali oqibati haqida allaqachon aytilgan. Bunday holda inversiya keying qilmishdan ko'ra boshqa bir maqsadga ega. Dramatik asardagi konflikt real hayot ziddiyatlarini aks ettirib, nafaqat syujet-konstruktiv maqsadni, balki dramaning g'oyaviy-estetik asosini tashkil etadi, uning mazmunini ochishga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, dramatik konflikt bir vaqtning o'zida voqelik jarayonini modellashtirish vositasi va usuli sifatida harakat qiladi, ya'ni u harakatga qaraganda kengroq va ko'proq hajmli kategoriyadir. Uning aniq badiiy amalga oshirilishida dramatik konfliktning rivojlanishi tasvirlangan hodisaning mohiyatini eng chuqur ochib berishga, hayotning to'liq va yaxlit manzarasini yaratishga imkon beradi. Shuning uchun dramatik to'qnashuv dramatik to'qnashuv dramaturgiyaning asosi ekanligini aniqlik bilan ta'kidlaydilar. Dramaning ziddiyati shundan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shekspir. "Romeo va Julyetta" - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
2. B. Jalilov. O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari, 1984.
3. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati, 1983